XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-dekabr VII-3-023-9-124-K/24 Guliston tumani

Guliston tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining Sirdaryo viloyati hokimligiga 2024-yil 11-martdagi 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Guliston tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 18-oktabrdagi 1/03-415-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Guliston tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga

asosan Guliston tumani bilan chegaradosh boʻlgan Guliston shahari, Mirzaobod, Sayxunobod, Boyovut tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

MAMADAMINOV
ULMASJON
YARMAXAMMATOVICH

Xalq deputatlari Guliston tumani
Kengashining
2024-yil 14-dekabrdagi
VII-3-023-9-124-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash bo'yicha chegara chizig'ining
T A V S I F I

Mirzaobod, Sayxunobod va Guliston tumanlarining chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan nuqta boshlang'ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°37'19,164", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°43'35,113").*

A dan B gacha Sayxunobod tumani yerlari bilan 1 - 20 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 312 metr masofani o'tib, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan umumiy janubiy yo'nalishda 661 metr masofani o'tib, so'ng chegara chizig'i zovurga o'tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan 282 metr masofani o'tib, zovur bo'yida joylashgan 2-nuqtaga o'tadi. *(shimoliy kenglik 40°37'01,959", sharqiy uzoqlik 68°44'04,776").*

2 - nuqtadan chegara chizig'i shimoliy yo'nalishda zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan 185 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi, keyin umumiy shimoliy yo'nalishda qishloq ichki yo'lining sharq tomoni bilan 872 metr masofada A-373 avtomobil yo'liga o'tadi, so'ng sharqiy yo'nalishda yo'lning janub tomoni bilan 936 metr masofani o'tib ko'prik bo'yidagi 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'37,766", sharqiy uzunlik 68°44'35,843").*

3 - nuqtadan chegara chizig'i A-373 avtomobil yo'li ko'prigidan Sho'ro'zak zovuriga o'tadi va umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 959 metr, umumiy sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1209 metr, janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1588 metr masofada dala tuproq yo'liga o'tadi, keyin janubiy-sharqiy yo'nalishda dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan 2679 metr, janubiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 1226 metr masofani o'tib dala tuproq yo'li bo'yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'10,947", sharqiy uzunlik 68°48'02,034").*

4 - nuqtadan chegara chizig'i umumiy janubiy-sharqiy yo'nalishda dala tuproq yo'lining g'arb tomoni bilan 4550 metr masofani o'tib zovur bo'yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'27,808", sharqiy uzunlik 68°50'18,581").*

5 - nuqtadan chegara chizig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 4333 metr masofani o'tib Sho'ro'zak zovuri bo'yidagi 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'59,268", sharqiy uzunlik*

68°52'35,732").

6 – nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Sho‘ro‘zak zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2661 metr, sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2040 metr masofani o‘tib zovur bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'50,760", sharqiy uzoqlik 68°55'31,945").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Sho‘ro‘zak zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2223 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 463 metr masofada Do‘stlik kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'30,709", sharqiy uzoqlik 68°57'21,390").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 1752 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°34'15,184", sharqiy uzoqlik 68°56'35,118").*

9 – nuqtadan chegara chig‘i dala tuproq yo‘lini va zovurni kesib o‘tib, tomarqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 192 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 127 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°34'21,672", sharqiy uzoqlik 68°56'39,595").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 230 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 26 metr masofada zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'26,759", sharqiy uzoqlik 68°56'45,913").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 636 metr, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 479 metr, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 341 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'32,054", sharqiy uzoqlik 68°57'10,712").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy beton ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 837 metr, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 452 metr, sharqiy yo‘nalishda 508 metr masofada Bosh Qayirli zovuri bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'42,969", sharqiy uzoqlik 68°57'58,068").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i Bosh Qayirli zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 2435 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'56,151", sharqiy uzoqlik 68°57'54,829").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan 1834 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 35 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'57,351", sharqiy uzunlik 68°59'12,619").*

15 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda dala tuproq yo‘lini, ariqni kesib o‘tib, keyin dala tuproq yo‘liga o‘tadi 988 metr masofani

o‘tib, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda R-26 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan 202 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'02,319", sharqiy uzunlik 68°59'56,776").*

16 - nuqtadan chegara chizig‘i avval janubiy yo‘nalishda R-26 avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 543 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 493 metr masofani o‘tib, keyin chegara chizig‘i tomorqa chegarasiga o‘tadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr masofani o‘tib, so‘ngra qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'39,911", sharqiy uzunlik 69°00'19,264").*

17 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan 426 metr, sharqiy yo‘nalishda 839 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'52,272", sharqiy uzunlik 69°01'09,565").*

18 - nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 659 metr masofa o‘tib, sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Uyliko‘l ko‘lining chap tomoni bilan 1641 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°36'16,138", sharqiy uzunlik 69°02'36,601").*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 699 metr, janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 540 metr masofani o‘tib, Toshkent viloyati hamda Guliston, Sayxunobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'41,457", sharqiy uzunlik 69°02'35,440").*

B dan D gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 20 - 23 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

20 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2937 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1278 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 5577 metr masofani o‘tib, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'47,419", sharqiy uzunlik 69°04'41,751").*

21 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining o‘zani bo‘ylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 25630 metr masofani o‘tib, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'07,654", sharqiy uzunlik 69°05'17,209").*

22 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariqning chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1125 metr masofada dala tuproq yo‘li va Do‘stik kanalini kesib o‘tib, Toshkent viloyati, Boyovut va Guliston tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, kanal bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'52,944", sharqiy uzunlik 69°04'34,715").*

D dan E gacha Boyovut tumani yerlari bilan 23 - 33 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

23 – nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 594 metr, shimoliy yo‘nalishda 2114 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'11,652", sharqiy uzunlik 69°04'12,021").*

24 – nuqtadan chegara chizigi Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 1197 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'48,836", sharqiy uzunlik 69°04'18,237").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1255 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqaliy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 21 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'29,731", sharqiy uzunlik 69°03'56,562").*

26 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3106 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'59,618", sharqiy uzunlik 69°02'59,141").*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 355 metr masofani o‘tib, keyin Boyovut zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 5960 metr masofani o‘tib, Boyovut zovuri bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'54,800", sharqiy uzunlik 68°58'32,765").*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i Boyovut zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1156 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 270 metr masofani o‘tib, Boyovut zovuri bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'59,810", sharqiy uzunlik 68°57'33,583").*

29 – nuqtadan chegara chizig‘i Boyovut zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1906 metr, g‘arbiy yo‘nalishda 3292 metr masofada zovurni va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'38,960", sharqiy uzunlik 68°54'04,699").*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 1364 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'43,053", sharqiy uzunlik 68°53'07,190").*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 2791 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'49,975", sharqiy uzunlik 68°51'09,160").*

32 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni

bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 2547 metr masofani o‘tib, Guliston shahri, Guliston va Boyovut tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan
33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'54,006", sharqiy uzunlik 68°49'53,891").*

E dan F gacha Guliston shahri yerlari bilan 33 - 49 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

33– nuqtadan chegara chizig‘i zovur bo‘yidan dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 754 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'55,932", sharqiy uzunlik 68°49'21,988").*

34 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 117 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin Do‘stlik kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr masofada ko‘prikga o‘tib, so‘ng ko‘prikning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 52 metr masofada Do‘stlik kanaliga o‘tib, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 198 metr masofani o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°29'00,998", sharqiy uzunlik 68°49'28,038").*

35 – nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanali bo‘yidan devorga o‘tadi va devor bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 105 metr masofada ariqqa o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 344 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'05,456", sharqiy uzunlik 68°49'13,669").*

36 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 907 metr masofada R-27 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'34,840", sharqiy uzunlik 68°49'14,696").*

37 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1733 metr masofani o‘tib, R-27 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'39,405", sharqiy uzunlik 68°48'01,332").*

38 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3763 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'38,051", sharqiy uzunlik 68°47'24,997").*

39 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'24,363", sharqiy uzunlik 68°46'07,430").*

40 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 494 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'39,982", sharqiy uzunlik 68°46'02,903").*

41 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 551 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'36,001", sharqiy uzunlik 68°45'40,136").*

42 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda 504 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 163 metr masofada zovurni kesib o‘tib, beton ariq bo‘yidagi 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'56,923", sharqiy uzunlik 68°45'35,775").*

43 – nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 502 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 1774 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'13,846", sharqiy uzunlik 68°47'09,501").*

44 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 2426 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'32,254", sharqiy uzunlik 68°47'11,632").*

45 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 965 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'34,202", sharqiy uzunlik 68°46'30,712").*

46 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2396 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'35,756", sharqiy uzunlik 68°45'24,282").*

47 – nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 43 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 114 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 323 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 64 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'31,261", sharqiy uzunlik 68°45'02,545").*

48 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3306 metr masofani o‘tib, Guliston shahri, Mirzaobod va Guliston tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'15,636", sharqiy uzunlik 68°44'30,758").*

F dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 49 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

49 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-

shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3816 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 139 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 48 metr masofani o‘tib, temir yo‘liga tutashadi va temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 414 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'35,038", sharqiy uzunlik 68°43'48,390").*

50 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda temir yo‘li bo‘ylab 1074 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 325 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'19,164", sharqiy uzunlik 68°43'35,113").*

Xalq deputatlari Guliston tumani
Kengashining
2024-yil 14-dekabrdagi
VII-3-023-9-124-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI